

O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" ASARINI O'QIB...

*TDTU 3-son akademik litseyi
o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Saidova Dildora*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'. Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari olgan uumuminsoniy g'oyalar misolida talqin qilinadi. Ijodkorning badiiy mahorati uning asarlari tahlili orqali aks ettiriladi. O'zbekcha nutqning rivojlanish darajasi belgilanadi. O'zbek adabiyoti darslarida adabiy asarlarni o'rganishdan maqsad o'zbekning ruhiyatini anglatish orqali o'quvchining ma'naviy dunyosini boyitishdan iboratdir. "Dunyoning ishlari" asarini yana qo'limga oldim. O'qidim... Angladim... Yig'ladim... Asar haqida to'lqinlab,soatlab,asarni qaytadan kashf etib gapirish mumkin. Asarning bahosini esa S.Ahmad berib bo'lgan: «O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas doston deb atashni istar edim.

Kalit so'zlar: Adabiyot....So'z....Ichki-kechinmalar...g'oya, talqin, tahlil, badiiy mahorat, estetik ideal, poetik joziba, ijodkor fenomeni.

Abdulla Qahhorning bir gapi bor: "Adabiyot atomdan kuchli..." Darhaqiqat,shunday. Adabiyot ayniqsa, badiiy adabiyot inson tuyg'ularini,ruhiy kechinmalarini yuzaga chiqaradigan,samimiy va pok tuyg'ularga sherik qiladigan vositadir.

O'zbek adabiyotini darslarida o'quvchining kitobxonlik darajasi, o'qilgan asarni tushunishning chuqurligi aniqlanadi. O'zbekcha nutqning rivojlanish darajasi belgilanadi. O'zbek adabiyoti darslarida adabiy asarlarni o'rganishdan maqsad o'zbekning ruhiyatini anglatish orqali o'quvchining ma'naviy dunyosini boyitishdan iboratdir. Buning uchun o'quvchi o'zga abiyotning nazariy asoslari bilan ma'lum darajada tanish bo'lishi talab etiladi. Qolaversa, nazariy tushunchalarni bilgan o'quvchi badiiy hodisani tahlil qilganda, asar haqida gapirganda fikrini asosli ifodalay oladi. Ayni vaqtda badiiy asar o'rganish adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish uchun emas, balki adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish badiiy asarlarni to'laroq anglash uchun kerakligi hamisha diqqat markazida bo'lishi lozim. Ular o'rganilgan asarning badiiy go'zalligini ochish uchun kerak. Bu o'rinda birinchi planda adabiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish emas, balki adabiy asarlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchining ma'naviyatini boyitish turadi.

O'zbek adabiyotini ham ulkan bir daraxtga qiyos qiladigan bo'lsak, uning kundan-kunga yangicha ko'rk ochib, rivojlanib borishida tom ma'noda ildiz vazifasini bajarayotgan ijodkorlarimizning o'rni beqiyosdir. O'zining ibratli hayot yo'li hamda mazmunli asarlari bilan osha adabiyot beb atalmish daraxtni ozuqa bilan taminlab

turgan adiblarimizdan biri bu, shubhasiz O'tkir Hoshimovdir. Adib haqida gap ketganda taniqli munaqqid Umarali Normatovning quyidagi fikrlari harakerlidir. "Ilk qissasi "Cho'l havosidan" tortib, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobiga qadar, barcha asarlariga xos mushtarak holat shuki, ular betakror, benazir, sirli musiqiy ohang bilan yozilgan. Muallif qo'lidagi qalam go'yoki yozmaydi, balkim qalami uchidan so'zlar musiqa singari quyilib keladi; uning hikoya va qissalari she'rdek, dostondek o'qiladi, ular ysama sozda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, romanlari ko'p ovozli simfoniyaning eslatadi..." Yuqoridagi fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, O'tkir Hoshimov asarlari xalqchilligi, yuksak falsafiy mushohadaga boyligi bilan alohida ajralib turadi.

Badiiy adabiyot o'zining tur va janr imkoniyatlari bilan shu qadar rangbaranglik kasb etadiki, uning qa'riga qanchalik chuqur sho'ng'isang, shunchalik ko'p ma'nomohiyat durlarini qo'lga kiritasan. Adabiy matn turlari yoki janr xususiyatlari o'zgarib borgan sayin ta'limiy tahlil tamoyillarining talablari hamisha o'zgarishini, bunda faqat tahlil usullari yoki munosabat ayricha tus olishi mumkinligini unutmaslik lozim.

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning qirqdan ortiq asarlari ming-minglab kitobxonlarning ma'naviy mulkiga aylanishga ulgurgan. Ushbu asarlar joy olgan kitoblarning umumiy tiraji esa 2 million nusxadan oshgan. Yozuvchi asarlari ko'pgina xorijiy tillarga tarjima qilingan. Bu natijalar har qanday ijodkor orzu qiladigan, intiladigan marradir.

Biz qachon kitobni sevib o'qiydiz? Unda tanish qismatlar aks etgan bo'lsa, qahramonlar bilan darddosh, baxtdosh bo'la olsakina. Shu nuqtai nazardan O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi o'quvchilar qalbidan chuqur o'rin egallagan asar sifatida qadrli. Yaqinda O'. Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarini yana qo'limga oldim. O'qidim... Angladim... Yig'ladim... Asar haqida to'lqinlab, soatlab, asarni qaytadan kashf etib gapirish mumkin. Asarning bahosini esa S.Ahmad berib bo'lgan:

«O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas doston deb atashni istar edim. U qo'shiqday o'qiladi, uni o'qib turib o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarning aqalli bittasini uza oldikmi, degan andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi». Asarda onalarga ta'rif berilgan o'rinlar juda ko'p. Ayrimlarini keltirib o'tamiz:

-Yulduzlar to'la osmonga tikilaman. Ehtimol, osmondagi eng yorug' yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so'ngan yulduzlari birlashib quyoshga aylangandir. Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir.

- Ilgari bir haqiqatni bilardim. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi. Endi yana bir haqiqatni angladim. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo'lmas ekan. Ona ona ekan. Unga boshqa sifat kerak emas.

- Onalar farzandlari hamisha birga bo'lishini istaydilar. Qismat esa ularni qanot chiqarishi bilan har yoqqa uchirib ketadi. Hayot loaqal shu masalada ham onalarga shafqat qilmaydi.

- Haqiqat havoga o'xshaydi. Nafas olib turasizu o'zini ko'rmaysiz. Onam aytgan afsonalar ham hayotdek oddiy, hayotdek chuqur haqiqat ekan.

- Har kim har kimning ko'ziga cho'p solishi mumkin, har kim har kimga xiyonat qilishi mumkin. Faqat ona o'z bolasiga hech qachon xiyonat qilmaydi. Ehtimol, inson hayotining shuncha yillardan buyon davom etib kelayotgani shundandir.

- Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo'shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan eng oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go'dak bemalol orom oladi. Nega shunaqa? Nahotki, go'dak tushungan narsaga biz tushunmasak? Ehtimol, buning boisi boshqa joydadir. Ehtimol ona tushungan narsani bizlar tushunmasmiz. Balki shuning uchun ham ona – tabiatning eng buyuk ixtirosidir.

XX asr o'zbek adabiyotida o'z o'rni va uslubiga ega bo'lgan adib - O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov, aytish mumkinki, XXI asr o'quvchisining ham sevimli adibi bo'lib qoladi. Jonli va hayotiy tasvirlar, sof o'zbekona yondashuv va xarakter, qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar mutolaasi o'quvchini o'z ta'siriga oladi. Nafaqat millat, balki chin insoniylik tarannumi yozuvchi asarlarida yetakchilik qilishi kitobxon uchun tarbiyaviy va hayotiy saboq bo'ladi. Xoh jiddiy, xoh hajviy bo'lsin O'tkir Hoshimov asarlarida hayot qaynaydi: unda har birimiz o'zimizni, oilamizni, do'st-u yorimizni, hatto hech kimga o'xshamagan onamizni ko'ramiz... Bir inson umrini qamragan roman bo'lsin, qator novellalardan iborat qissa yoki hikoya bo'lsin, janridan qat'i nazar, O'tkir Hoshimov asarlarida dunyoning ishlari mujassam. Mutolaa har qanday o'quvchi uchun katta hayotiy xulosa berishiga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008
2. Uzluksiz adabiy ta'lim konsepsiyasi. -T.: O'zbekiston PFITI, 1995.
3. Duysenbayev O.I. O'tkir Hoshimov ijodida ona obrazi. F.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. Toshkent, 2011.
4. Yo'ldoshev Q., Madayev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: "O'qituvchi" 1994